

MENTALITET TRANSFORMATSIYASIDA MILLIY XARAKTERGA TA'SIRI

F.f.b.f.d. (PhD) Buriyev M.R.

Toshkent kimyo texnologiya instituti.

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining

katta o'qituvchisi

e-mail: mansurboriyev826@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu moqala O'zbekiston jamiyati modernizatsiyasida mentalitet transformatsiyada milliy xarakterini shakllantirishda shaxsning “ijtimoiy qiyofa”si va “ma'naviy qiyofa”si jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega ekanligi asoslash. Shuningdek, insonning ma'naviy qiyofasi bu insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari, e'tiqodi, dunyoqarashi, o'dob-axloqi, vijdoni va boshqalarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ma'naviy xususiyatlar majmuasidir. U insonning fikri, so'zi va amallarida namoyon bo'lishi ochib berish.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, ma'naviy qiyofa, ma'naviyat, axloq, milliy xarakter, gumanistik-insonparvarlik, oliyanobillik, o'zbekchilik.

ABSTRACT

This article argues that the "social image" and "spiritual image" of a person are of great importance in the development of society in the formation of a national character in the transformation of mentality in the modernization of Uzbek society. Also, the spiritual image of a person is a set of spiritual characteristics that express a person's inner world, moral qualities, beliefs, worldview, morality, conscience and attitude towards others. It is revealed that it is manifested in a person's thoughts, words and deeds.

Keywords: social, spiritual image, spirituality, morality, national character, humanistic-humanitarianism, nobility, Uzbekism.

KIRISH

Milliy xarakter bilan bog'liq xalqimizning o'ziga xos xislatlarini yoritishdan oldin, ularning shakllanishining muhim o'rin tutgan, “ijtimoiy qiyofa” va “ma'naviy qiyofa” bilan o'xshash tomonlari, ya'ni insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari, e'tiqodi, dunyoqarashi, o'dob-axloqi, vijdoni va boshqalarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi ma'naviy xususiyatlar majmuasidir. U insonning fikri, so'zi va amallarida namoyon bo'ladi va ularning tarkib topishidagi asosiy omillar va ularning bir-biridan farqini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

A.Chorievning yozishicha, insonning “ma’naviy qiyofasi” va insonning “ijtimoiy qiyofasi” tushunchalari biri ikkinchisi bilan dialektik aloqador. Shunday bo‘lishiga qaramay, ushbu tushunchalar biri ikkinchisiga aynan o‘xshash, ya’ni bir xil tushunchalar emas. Insonning “ma’naviy qiyofasi” insonning “ijtimoiy qiyofasi” tushunchasidan qamrovi kengroq tushunchadir. Chunki insonning “ijtimoiy qiyofasi” tushunchasi insonning “ma’naviy qiyofasi” tushunchasida mujassamlashgan voqelikning ma’lum bir qismini o‘zida aks ettiradi. Insonning ma’naviy qiyofasi esa o‘zida insonning ijtimoiy qiyofasini xarakterlovchi insoniy fazilatlar, xislatlar va xususiyatlar bilan birga, uning tashkilotchilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik qobiliyatlari, professional – kasb-kor malakalari, ruhiy-psixologik o‘ziga xosligini ifodalovchi (birov kamgap, boshqa birov dilkash, ochiq ko‘ngil, yana kimdir “ichimdagini top” va hokazo) xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy qiyofa bu, eng avvalo, ijtimoiy axloq, ijtimoiy xatti-harakat va fuqarolik pozitsiyasidir. Shuni alohida qayd etish zarurki, har qanday jamiyatning rivoji uning a’zolari o‘rtasida mo’tadil ijtimoiy munosabat va aloqalar bo‘lishini taqozo etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo miqyosidagi tub sifat o‘zgarishlar, sivilizatsiyalararo muloqotlarning avj olishi kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarga ham sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Bu esa ulardagi ijtimoiy qiyofaning shakllanishida ham muayyan o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlari har bir shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy hamda ma’naviy qiyofasiga o‘z ta’sirini uzluksiz o‘tkazib bormoqda. Qolaversa, fuqarolarimiz dunyoqarashida sobiq tuzum davridagi ijtimoiy jarayon va munosabatlarda saqlanib qolgan stereotiplar, odatlar, yangilanayotgan hayot sharoitidagi o‘ziga xos an’analar madaniy hamda axborot kommunikatsiyalar ta’sirida o‘zaro omixtalashib, ijtimoiy-ma’naviy qiyofadagi va milliylikdagi davriy o‘zgarishlar ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sobiq Ittifoq mafkurasi allaqanday dabdabali shiorlar, chaqiriqlar orqali kishilarda sovet xalqiga xos madaniyatni va u asosda kommunistik axloqni shakllantirmoqchi bo‘ldi. Shu sababdan xalqimiz tabiatidagi, ma’naviy qiyofasidagi o‘zbekona milliy xarakterning o‘ziga xos fazilatlarining ustuvorligini ta’minlashga tabiiy ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa jamiyatning tubdan yangilanishini talab etadi, binobarin, insonni “yangilash” inson tafakkuri, ruhiyati, kayfiyati va ongini isloh qilish orqali amalga oshirishni taqozo etadigan hodisadir. Mustaqillik bevosita odamlar tafakkuri, ularning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy ongining takomillashish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Yangi O‘zbekistonda keng miqyosli

islohotlarni inson ongi va qalbi orqali o'tkazishga e'tibor kuchaytirilib, bu jarayonlar har tomonlama ijtimoiy faol fuqaroni shakllantirish ishi bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Ana shu uyg'unlik va ma'naviy-ruhiy tiklanish, "O'zbekiston fuqarosi"ni vujudga keltirdiki, bu muhim ijtimoiy o'zgarish olimlarimiz tomonidan ham to'g'ri ta'kidlanmoqda.

Ijtimoiy ong mazmunining tobora gumanistik-insonparvarlik kasb eta borishi, shaxs haq-huquqlari barqarorlashayotganligi, xalqaro makonda mehr-shafqat, bag'rikenglik, odamiylikka doir umumplanetar maylning kuchayishi jamiyat, jamoa va shaxs ma'naviyatida yangilanish jarayonlarini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq. Milliylikdan begonalashish, unga unchalik to'g'ri kelmagan, umumbashariy tamoyillar bilan uyg'unlashmagan va mushtaraklashmagan taqlidchilik, avvalo, ma'naviy qiyofa va milliy xarakterga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu oxir-oqibatda "G'arblik"ga ham, "Sharqlik"ga ham o'xshamagan kishilarning o'ziga xos xarakteri shakllanishiga olib keladi.

Birinchidan, bunday odamlar, o'zining milliy-ma'naviy qiyofasidan ancha begona bo'lganligi tufayli, madaniyatning faqat umume'tirof etilgan tamoyillarini tan oladi, ayrim xalqlarga xos qarashlar va baholash mezonlaridan kelib chiqqan holda yondashadi, munosabat bildiradi, deb bo'lmaydi; ikkinchidan, ma'naviy madaniyatga milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlar, taomillar, odatlardan kelib chiqib baho berish hollari fuqarolarni o'zligidan, milliy negizlaridan begonalashtiradi. Shaxs ijtimoiy ma'naviy qiyofasini belgilovchi yana bir omil – bu milliy o'ziga xoslikni anglatuvchi o'zbekona fe'l-atvor, o'zbekchilik bilan bog'liq taomillardir. "O'zbekchilik" shaxs ijtimoiy-ma'naviy qiyofasida ustuvor ahamiyat kasb etsa-da, ammo bu tushunchani izohlashga yondashuv hamda qarashlar turfa xillikka ega [4]. Manbalarga murojat qiladigan bo'lsak, juda qadimdan xalqimiz etnogenezisini tashkil etgan va keyinchalik o'zbek xalqi, o'zbek millatining shakllanishiga asos bo'lgan turkiy qavmlar va xalqlarning ma'naviy-ijtimoiy qiyofasi hamda xarakteriga xolis baho berilganligining guvohi bo'lamiz. Bundan ikki ming yil avval yashab o'tgan Rim tarixchisi Pompey Trog turkiy xalqlarning ajdodlari to'g'risida: "Baqtrlar, so'g'dlar va xorazmiylar o'zlarining kelib chiqishi qadimiyligi jihatdan misrliklar bilan raqobatlasha oladilar. Ular mehnatda ham, jangda ham o'zlarini ayashmaydi, jismoniy jihatdan favqulodda kuchlidirlar. Ular o'zlariga haqli sur'atda tegishli bo'lgan narsani o'zgaga berishni aslo istamaydilar. Ular faqat g'alabani ko'zlashadi", – deb yozgan edi. XX asrning yirik huquqshunos olim L.Levitin o'zbekchilikning o'ziga xosligi, buyuk qudratiga tan berib, quyidagilarni yozadi: "Yaratganning o'zi o'zbeklarga alohida jasorat va matonat ato etgan". "Mening bir do'stim bor edi, – deb fikrini davom etiradi L.Levitin, – u, asli,

yevropalik yahudiylardan bo‘lib, Toshkentning eski shahridagi o‘zbek mahallasida yashagan. U advokat edi. O‘zbek tilini yaxshi bilganligi uchun ko‘pincha sud ishlarida o‘zbeklarni himoya qilar edi. U hayotdan bevaqt ko‘z yumdi. Taqdir ekan, oilasi yo‘q edi. Shunda biz, bir necha do‘stlari, dafn marosimlarini va u bilan bog‘liq hamma ishlarni tashkil qilishni o‘zimizning muqaddas burchimiz deb hisobladik. Lekin bunga hech qanday zaruriyat qolmagan ekan. O‘zbek qo‘shnilari o‘z qarindoshlarini qanday oxirgi manzilga kuzatishsa, uni ham shunday kuzatishgan”.

Yuksak ijtimoiylik va oliyanoblilik namunasi bo‘lgan va o‘zbeklar oddiygina “savob” deb ataydigan bunday misollarni xalqimiz hayotidan ko‘plab keltirish mumkin. Haqiqatan ham, o‘zbeklar yaqin qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilaridan xabar olib turishni aslo unutishmaydi. Keksalarga doimo ehtirom ko‘rsatishadi. Bu yerda norasidalar, bechoralar, yetim-yesirlar to‘g‘risida muqarar ravishda g‘amxo‘rlik qilishadi. “Biroq o‘zbek milliy xarakteriga xos bo‘lgan jamoaviylik Sobiq Ittifoq davridagi jamoatchilik bilan hech qanday umumiylikka ega emas. O‘zbek jamoatchiligi ijtimoiy hayotning barcha darajalari va sohalarida: turmushda, ishlab chiqarishda, iqtisodiyotda va siyosatda ko‘zga tashlanib turadi. O‘zbekistonda odamlar bir-birlari bilan norasmiy aloqalar ila bog‘lanib ketgan. Ular birdamlik tuyg‘usidan ilhomlanib, o‘z mehnati va mablag‘ini tenglik va adolat asosida umumiy ishga sarflashadi. Bu yuksak insoniy qadr-qimmat va axloq belgisidir. Odamlar ko‘proq mustaqillikka hamda biron-bir jamoat majburiyatini bo‘yniga olmaslikka moyil bo‘lgan Yevropadagi biron-bir xalqqa bunday xususiyatlar xos emas”. Ammo ana shunday o‘zbekona fazilatlar mohiyatini teran anglamagan yoki anglashni istamayotgan ayrim mualliflar o‘zbek milliy xarakterining azaliy qadriyatlarini xaspo‘shlab, xalqimizning milliy o‘zligini anglash darajasining pastligi haqidagi asossiz fikrlarni ro‘kach qilib, o‘zbekchilikdagi soddadillik, to‘g‘riso‘zlik, ishonuvchanlik kabi xislatlarni illat deb qarashdan ham toymayotganligi juda achinarli holdir. Ba’zi bir mualliflarning kishini taajjubga soladigan mulohazalaridan yana biri shundaki, ular aynan bizning millatimiz tabiatiga xos qadriyatlari sanalmish ayrim fazilatlarini boshqa millatlar sha’ni va g‘ururini ulug‘lovchi sifatiy belgilar deb talqin etayotganligidir.

Dunyodagi biror-bir millat nomi yangraganda, millatga xos xususiyatlar ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Achinarlisi, bu faqat boshqa millat vakillariga nisbatan holat hisoblanib qolmoqda. Har bir millat vakili boshqa millat xususida turlicha fikrga borishi mumkindir, lekin o‘zi haqida, o‘z millati haqida gap ketganida, albatta, eng samimiy so‘zlar bilan millatini yodga oladi. Millatining nomini qo‘shib ishlatsa ham, eng yaxshi ishni bajargan paytda gapiradi. “O‘zbekchilikka” nisbatan aytilgan mazkur mulohazalarda qisman haqiqat bo‘lsa bordir, ammo o‘zbekchilikning

umuminsoniy qadriyatlarga daxldor xislatlarini, muallif mulohazalari bilan aytganda, “o‘zbek (millati) nomini nuqul muammolarning yechimi uchun bahona sifatida ishlatamiz”, degan fikr ilmiy nuqtai nazardan mutlaqo asossiz va amaliy jihatdan ham jiddiy xatodir. Chunki bizning xalqimizda lafzi halollik, o‘z g‘ururi va nafsoniyatini, qadrini baland tutish milliy fazilat sanaladi. Buni nafaqat bizning o‘zimiz, balki uzoq xorijda yashovchi turli toifadagi kishilar ham e’tirof etganligini maqola muallifi, nahot, bilmagan bo‘lsa.

Qolaversa, buyuk jadid namoyandasi A.Fitrat ham “o‘zbekchilik” tasodifiy hodisa emasligini, uning o‘ziga xos muayyan asoslari borligini ham alohida uqtirgan edi. “Fitrat, – deb yozadi adabiyotshunos N.Karimov, – o‘zbekchilik asoslarini to‘rt shartning mavjud bo‘lishligida ko‘rgan, bularsiz o‘zbek millatining bo‘lishini tasavvur ham etmagan [3]. Bu shartlar esa, birinchidan, har bir millatning o‘z tarixiy vataniga ega bo‘lishi, ikkinchidan, milliy tilning sofligiga erishish, uchinchidan, o‘z yo‘lidan borish va to‘rtinchidan, milliy qadriyatlar, an‘analar va tarixiy-madaniy ildizlariga tayangan holda rivojlanishini ko‘zda tutadi. Fitrat va u rahnamosi bo‘lgan o‘zbek ziyolilari XX asrning 20- yillari arafasida ana shu e’tiqoddan kelib chiqqan holda o‘zbekchilik asoslarini belgilashga urinadilar”². Bu bejiz emas, albatta, chunki milliy ma’naviy qiyofaning muhim komponenti bo‘lgan o‘zbekchilik tamoyillari shaxsda milliy xarakterni tarbiyalashning ham muhim omili sanaladi. Garchi shaxs ijtimoiy jarayonlar, biosotsiol hodisalar mahsuli bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasining shakllanishi ana shu jarayonlar sintezi natijasidir.

Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ham o‘z davridayoq inson biosotsiol vujud, ya’ni tana, ruhiyat va ma’naviyat birligidan iborat ekanligini chuqur anglab yetgan hamda inson ma’naviy qiyofasi shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni asoslab bergan edi [1]. Bu kabi inson ma’naviy qiyofasi, uning ijtimoiy mohiyatini ochib beruvchi turli nazariyalar, konsepsiyalar, gipotezalar har bir davrda ko‘plab yaratilgan. Chunki inson hamisha o‘zining kimligini bilishga oshiqadi, ma’naviy yetuklik tomon intiladi, erkin fikr yuritishga, mustaqil shaxs bo‘lishga intiladi, bir so‘z bilan aytganda, o‘zining ongli faoliyati doirasida vujudga kelgan turli ziddiyatlar, nomutanosibliklarni bartaraf etishga harakat qiladi. Lekin zamonlar o‘tishi bilan inson ma’naviy qiyofasida hali bilinmagan sirlar, yechilishi zarur bo‘lgan jumboqlar borgan sari ko‘payib boraveradi. Ayniqsa, bu muammolar XXI asrga kelib yanada chuqurlashdi. Buning sababi esa ayon. XXI asrda dunyo xalqlari sivilizatsiyalararo muloqot asrida yashamoqda. Har bir millat va xalq o‘zligini anglash, jahon xalqlari taraqqiyotida o‘z salmog‘i va o‘rniga ega bo‘lish uchun kurashmoqda.

Ana shunday bir sharoitda inson ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etuvchi xalq ma'naviy merosini o'rganish, undagi kishilarning imon-e'tiqodini mustahkamlashga, yaxshi insoniy fazilatlarga undovchi o'gitlardan bahramand bo'lish, ezgu ishlarga ixlosmand qilib tarbiyalash bobidagi badiiy, ilmiy hamda ijodiy merosni ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma'naviy hayotimizga keng tatbiq etish davr talabi bo'lib qoldi. Xalq fe'l-atvorida yangiliklarga intilish, yaratish, bunyodkorlik hissi, milliy birlikka intilish va hayotga oqilona yondashuvni yuzaga keltirish bugungi kunda hayotiy zaruriyat bo'lib, mentalitetni yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undaydi [2]. Shu ma'noda, milliy ma'naviy qiyofa bugungi kunda o'zgacha mazmun kasb etmokda. Ma'lumki, xalqimiz tabiatan yaxshiga havas qiladi, ibratga moyil, ota-ona va tug'ilib o'sgan joyini e'zozlaydi, udumlarini qadrlaydi, an'analarini hurmat qiladi.

Xalqimizga xos bo'lgan ana shu xususiyatlar bugun kamol topayotgan shaxsning ma'naviy qiyofasini belgilovchi andoza o'lchovi bo'la oladi hamda ularni Vatan ravnaqi va millat manfaatlariga xizmat qilishga da'vat etuvchi ta'sirchan omil hisoblanadi. Uni takomillashtirish va o'ziga xosligini saqlab qolishga jahon hamjamiyatidan yuz o'girish hisobiga emas, aksincha, jahondagi ilg'or yutuqlar va an'analarni o'zlashtirgan holda madaniy meros, til, adabiyot, san'at, ilm-fan hamda ma'rifatni rivojlantirish, ajdodlarga xos axloqiy qadriyatlardan unumli foydalanish orqali erishiladi. Ma'lumki, aksariyat xalqlar o'z taraqqiyot bosqichlarini turli, o'ziga xos sharoitlarda bosib o'tishgan. Jamiyat taraqqiyotida aloqadorlik va mushtaraklik kabi tushunchalar hech vaqt yo'qolib ketmaydi. Bunga jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, odamzodga xos ruhiy ko'nikma va ehtiyojlar, imkoniyatlar, ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi omillar kiradi.

Shaxs ijtimoiy-ma'naviy qiyofasining shakllanishida va yanada rivojlanishida uning hayotiy mo'ljallari, maqsadlarining aniqligi, orzu- umidlari va niyatlarining har tomonlama puxtaligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi [5]. Hayotdan ijobiy ma'nodagi qoniqmaslik tuyg'usi insonning mazmundor yashashi va to'laqonli ijodiy faoliyat ko'rsatishi uchun qudratli turtki vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganimizda, insonning kundalik turmushining o'zi uning ma'naviy qiyofasini, bir tomondan, insoniy fazilatlar, xislatlar bilan boyitsa, ikkinchi tomondan, xuddi shu tuyg'uning o'zi inson ma'naviy qiyofasining qashshoqlashuviga sabab bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, mazkur masala turmush tarzimiz bilan uzviy bog'liq. Muammoning yechimini ham o'z ruhiyatimizdan, xatti-harakatimiz va kundalik turmushimizdagi odatiy bo'lib qolgan illatlar, fikrlash tarzimizdan izlashimiz kerak. Eng muhimi har bir shaxs o'z fuqarolik pozitsiyasini aniqlay olishi, ijtimoiy qiyofasini jamiyat talablari asosida shakllantirishi, milliy va ma'naviy qiyofasi

takomilida xalqimizning hayotbaxsh udumlari, an'analari va qadriyatlaridan o'z o'rnida samarali foydalana olish iqtidorini yuksaltirishi zarur. Ayni ana shu tamoyillar milliy xarakterdagi o'ziga xos ijobiy fazilatlarni shaxs ongi va ruhiyatiga singdirish imkonini beradi. Millatimiz mentalitetidagi jamoaga intilib yashash, jamoani qadrlash tendensiyasi jamiyatimizning har bir fuqarosining kundalik turmush tarziga aylanib, insonlar jamoasini ulug'lash va qadrlash o'ziga xos milliy ruhiyat va kayfiyatning yuzaga kelish omili hisoblanib, kishilarning bir-biriga mas'ullik tuyg'usi oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sherov A. Axloqshunoslik. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2003.
2. Shoniyozev K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent.: Sharq, 2001.
3. Yusupov E., Yusupov U. Oila – ma'naviyat bulog'i. – Toshkent.: 2003.
4. Erkaev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2009.
5. Esonboboev F., Ismoilov D. Manipulyatsiya – ommaviy madaniyatning ta'sir usuli. // Milliy g'oya – yuksak ma'naviyatli shaxs kamolotining negizi. Ilmiy to'plam. 3- kitob. – Andijon.: 2010.